

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY — JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDASI

Yuldashev Askarjon Abdugappar o‘g‘li

*Toshkent fan va texnologiyalar universiteti Kechki ta’lim bo‘limi
boshlig‘ining Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosari*

Annotatsiya: Maqolada jadidchilik harakatining yirik namoyandalardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, ijtimoiy-siyosiy faoliyati va ma’rifatparvarlik g‘oyalari tahlil qilinadi. Uning milliy uyg‘onish jarayonlarida tutgan o‘rni, yangi usul maktablarini tashkil etishdagi xizmatlari, darsliklar yaratish va matbuot orqali jamiyatni isloh qilish borasidagi faoliyati yoritiladi. Shuningdek, Behbudiyning huquqiy va ma’naviy qarashlari ham ilmiy jihatdan baholanadi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, Mahmudxo‘ja Behbudi, ma’rifatparvarlik, yangi usul maktabi.

KIRISH

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va madaniy o‘zgarishlar jadidchilik harakatining shakllanishiga zamin yaratdi. Bu harakat milliy uyg‘onish, ma’rifat va islohot g‘oyalarini ilgari surgan ziyolilar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ular orasida Mahmudxo‘ja Behbudi alohida o‘rin tutadi. U dramaturg, publisist, ma’rifatparvar va jamoat arbobi sifatida jamiyatni taraqqiyot sari yetaklashga intilgan. Uning faoliyati milliy ta’lim tizimini isloh qilish, matbuotni rivojlantirish va ijtimoiy fikrni yangilash bilan bog‘liq edi.

ASOSIY QISM

Mahmudxo‘ja Behbudi 1875-yilda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida muftiy oilasida tavallud topgan. U ota tomonidan Xoja Ahmad Yassaviy avlodidan bo‘lib, ona tomoni ham ziyoli muhitga mansub edi. Bu omillar uning ma’naviy va intellektual shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Mahmudxo‘ja Behbudi 6–7 yoshlarida Samarqandda tog‘alari yordamida xat-savod chiqargan, keyinchalik otasi rahbarligida Qur’oni karimni o‘rgangan. O‘n besh yoshida qozi Muhammad Siddiq huzurida mirzalik xizmatini boshlab, huquqiy va ma’muriy ishlar bilan tanishgan. Keyinchalik muftiylik lavozimida ishlab, fiqh, meros va sud ishlari bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lgan.

Ayrim tadqiqotlarda Behbudiyning sud-huquq sohasidagi fikrlari zamonaviy islohotlarning ilk nazariy asoslaridan biri sifatida baholanadi. U

jinoyat va jazo masalalarida ijtimoiy adolat, insonparvarlik va jamiyat manfaatini ustuvor qo'yish g'oyasini ilgari surgan. Manbalarga ko'ra, u jazolarning ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilib, "afv" tushunchasini huquqiy amaliyotga keng tatbiq etish zarurligini ta'kidlagan.

Behbudiyning ma'rifatga bo'lgan qiziqishi oilaviy muhit bilan bog'liq edi. Uning otasi islom huquqshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis bo'lib, "Hidoya" asariga sharhlar yozgan. Bu asar Behbudiyning intellektual shakllanishida muhim o'rin tutgan.

1899-yilda u haj safariga chiqib, Arabiston, Misr va Turkiya shaharlarida bo'lgan. Sakkiz oylik safar davomida u yerlardagi ta'lim tizimi, madaniy muhit va islohotlar bilan tanishgan. Qohiradagi "Jome' ul-Azhar" madrasasini ziyorat qilib, yangi kitoblar olib qaytgan. Bu safar uning siyosiy va ijtimoiy qarashlarida muhim burilish yasagan. U taraqqiyotning asosiy yo'li ma'rifat va islohot ekanini anglab yetgan.

1903-1904 yillarda Qozon va Ufa shaharlariga safar qilib, yangi usul maktablari faoliyati bilan tanishgan. Tatar ziyolilari, ayniqsa Ismoil Gaspirinskiy bilan yaqin aloqa o'rnatgan. Gaspirinskiyning "Tarjumon" gazetasi Behbudiy uchun muhim ma'naviy-ma'rifiy minbarga aylangan.

Behbudiy milliy ta'limni isloh qilish maqsadida yangi usul maktablari tashkil etgan. U Siddiqiy Ajziy va Abduqodir Shakuriy bilan hamkorlikda 1903-yilda Samarqand atrofidagi qishloqlarda yangi usul maktablarini ochgan. 1908-yilda maktab Samarqand shahriga ko'chirilib, uning hovlisida faoliyat yuritgan.

U yangi maktablar uchun qator darsliklar yaratgan. Jumladan,

- "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy",
- "Kitobat ul-atfol",
- "Muxtasari tarixi islom",
- "Madhali jug'rofiyai umroniy",
- "Muxtasar jug'rofiyai Rusiy" kabi asarlari milliy ta'lim tizimi rivojiga katta hissa qo'shgan.

1913-yildan boshlab Mahmudxo'ja Behbudiy matbuot ishlari bilan shug'ullana boshlaydi. Shuningdek, "Nashriyoti Behbudiya" nomli o'zining xususiy nashriyotini yo'lga qo'yib, Abdurauf Fitratning "Bayonoti sayyohi hindiy" asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qilib, nashr ettiradi. Kitob do'konlari tarmog'ini tashkil etib, Samarqandda ommaviy kutubxona faoliyatini yo'lga qo'yadi va uni "Kutubxonai Behbudiy" deb nomlaydi. Mazkur muassasaga tashrif buyurgan har bir kishi o'ziga ma'qul bo'lgan kitobni kutubxonaning alohida fondidan sotib olishi ham mumkin bo'lgan. Ushbu kutubxonaga Behbudiyning 1899-1900-yillardagi va 1914-yildagi haj safarlaridan keltirgan kitoblari kirgan.

XULOSA

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri sifatida milliy uyg‘onish va taraqqiyot g‘oyalarini ilgari surgan yirik ma‘rifatparvar edi. U jamiyatni isloh qilish, ta‘lim tizimini yangilash va zamonaviy bilimlarni keng targ‘ib etish orqali ozod va taraqqiy etgan jamiyat barpo etish mumkin, deb hisoblagan. Uning faoliyati va asarlari o‘zbek milliy tafakkuri va ta‘lim tizimi rivojida muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qosimov B. Jadidlar. Toshkent: Ma‘naviyat, 2004.
2. Rajabov Q. Turkiston jadidchiligi tarixi. Toshkent, 1999.
3. Hoji Muin. “Mahmudxo‘ja Behbudiy”. Zarafshon gazetasi, 1923-yil 25-mart.
4. Abdulazizov A. O‘zbek ma‘rifatparvarlari. Toshkent, 2010.